JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.01/2025.27.12.Fil.06.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XUSANOVA SHOHSANAM NEMATOVNA

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA TALABALARGA BADIIY ADABIYOTNI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (Shukur Xolmirzayev asarlari misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek adabiyoti)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Jizzax – 2026

UO‘K: 378.091.3:821.512.133:004

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Xusanova Shohsanam Nematovna
Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga badiiy adabiyotni innovatsion yondashuv asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish (Shukur Xolmirzayev asarlari misolida) 3

Хусанова Шохсанам Нематовна
Методика преподавания студентам художественной литературы на основе инновационного подхода в условиях цифровых технологий (на примере произведений Шукура Холмирзаева)..... 27

Khusanova Shokhsanam Nematovna
Improving the methodology of teaching literature to students through innovative approaches in the context of digital technologies (based on works of Shukur Kholmirzayev)..... 55

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 61

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.01/2025.27.12.Fil.06.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XUSANOVA SHOHSANAM NEMATOVNA

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA TALABALARGA BADIIY ADABIYOTNI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (Shukur Xolmirzayev asarlari misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek adabiyoti)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Jizzax – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Ped.9538 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.jdpu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portali (www.ziyonet.uz)ga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Qosimov Usman** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Xamroyev G‘ofur Xasanovich** pedagogika fanlari doktori, professor
	Raximova Gulbaxor Qarshibayevna pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Chirchiq davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Jizzax davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.01/2025.27.12.Fil.06.02 raqamli ilmiy kengash asosida bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil «_____»_____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sharof Rashidov shoh ko‘chasi, 4. Tel: (+99872) 226-13-57, 226-21-73, faks: (+99872) 226-46-56 e-mail: jdpi_info@umail.uz). Jizzax davlat pedagogika universiteti. Bosh o‘quv bino, 2-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Jizzax davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan.) Manzil 130100, Jizzax shahri, Sharof Rashidov shoh ko‘chasi, 4. Tel: (+99872) 226-13-57, 226-21-73, faks: (+99872) 226-46-56.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «_____» _____ tarqatildi.
(2026-yil)«_____» _____ dagi ____-raqamli reyestr bayonnomasi).

A.E. Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

X.L. Maxammadiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

U.A. Jumanazarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta’lim tizimida badiiy asarlarni o‘qitish yangi sifat bosqichida raqamlashtirish, innovatsion yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv bilan amalga oshirilmoqda. Bugun Finlandiya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi rivojlangan davlatlarda adabiy ta’lim jarayonida asosiy e’tibor talabalarning o‘qish savodxonligini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini, mustaqil ishlash kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilmoqda. Bu jarayonda zamonaviy raqamli texnologiyalardan innovatsion yondashuv asosida foydalanib badiiy asarlarni o‘qitish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda adabiy ta’lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan keng tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu izlanishlar zamonaviy yondashuvlarga, xususan raqamli texnologiyalardan foydalanishga, raqamli savodxonlik va raqamli salohiyatni rivojlantirishga hamda pedagogik innovatsiyalarga asoslanadi. Talabalarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirish jarayonida badiiy asarlarni o‘qitish, ularni tahlil qilish kompetensiyalarini shakllantirish hamda bu jarayonga kreativ va tanqidiy yondashuvni o‘rgatish kabi masalalar ko‘plab tadqiqotchilar e’tiborini tortmoqda. Ijodkorlar asarlarini raqamli texnologiyalar sharoitida innovatsion yondashuv asosida o‘rgatish metodikasini takomillashtirish esa dolzarb ahamiyatga ega.

Yangi O‘zbekistonda keyingi yillarda adabiy ta’lim o‘z taraqqiyotida sifat bosqichiga ko‘tarilib bormoqda. Yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, shu orqali ularning intellektual salohiyatini o‘stirish, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish kabilar adabiyot o‘qitish sohasining zamonaviy yo‘nalishlarida tadqiq etilmoqda. “Yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy ko‘nikmaga ega, tarbiya, o‘qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog kadrlarni shakllantirish”[1] adabiy ta’lim jarayonining oldiga ham bir qator vazifalarni qo‘yadi. Oliy ta’limda raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga innovatsion yondashuv asosida Shukur Xolmirzayev asarlarini o‘rgatishning mazmuni, metod, vositalarini aniqlash, uni izchil o‘rganish ayni kundagi zaruriy vazifalardandir.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020-yil 23-sentabr, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta‘lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son Qarori // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 28.02.2020., 07/20/4623/0220-son, 13.06.2020, 07/20/4749/0758-son

mahsulotlarini nashr qilish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish va targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi VM-997-son “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Yangi O‘zbekistonda takomillashib borayotgan adabiy ta’limning asoslari yigirmanchi asr boshlarida adabiyot nazariyasi, adabiyot o‘qitish metodikasi va uning didaktik ta’minoti, dastlabki adabiyot darsliklarini yaratish borasida izlanishlar olib borgan ma’rifatparvar ajdodlarimiz Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi ijodkorlarning ilmiy-nazariy, adabiy va ma’rifiy qarashlarida aks etgan.

Keyinchalik adabiyot o‘qitishning alohida fan sifatida shakllanishiga S.Dolimov, Q.Ahmedov, N.Mallayev, A.Zunnunov, T.Boboyev[2] kabi olimlarning ilmiy qarashlari, tadqiqot ishlari xizmat qilgan bo‘lsa, uning ilmiy asoslari, badiiy asar matni ustida ishlash metodlari, adabiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish, badiiy-estetik va falsafiy tafakkurni rivojlantirish masalalari S.Matchonov, Q.Yo‘ldoshev, M.Mirqosimova, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova, U.Dolimov, Sh.Yusupova, Y.Abduvalitov, V.Qodirov, Q.Yusupova, N.Yuldasheva singari metodist olimlar tomonidan o‘rganilgan[3].

---

[2] Долимов С., Убайдуллаев Ҳ., Аҳмедов Қ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – 448б.; Зуннунов А., Ҳотамов Н. Адабиёт назариясидан қўлланма. Ўрта мактабларнинг юқори синфлари учун. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.- 160 б.; Маллаев Н.М., Исматов С.И. Ўзбек адабиѐти тарихи. Ўрта мактабнинг 9-синфи учун дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965.- 218 б..; Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Тошкент, Ўқитувчи, 1996.-344 б.

[3] Матчонов С. Умумтаълим тизимида адабиётдан мустақил ишларни ташкил этиш. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1998. – 300 б.; Йўлдошев Қ.Б. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан.док. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 306 б.; Мирқосимова М.М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш усуллари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1995. – 253 б.; Ҳусанбоева Қ.П. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 262 б.; Ниёзметова Р.Х. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганишнинг назарий ва методик асослари (рус гуруҳлари мисолида). Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 242 б.; Долимов У. Жадид мактабларида она тили ва адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий ҳамда амалий асослари. Пед. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 44 б.; Yusupova Sh. Til ta’limi va falsafa. –Toshkent: Mumtoz so‘z, 2009. – 140 b.; Абдувалитов Е.Б. Умумий ўрта таълим мактабларида қардош халқлар адабиётини қиёсий ўрганиш (таълим ўзбек, қозоқ, қирғиз, қорақалпоқ ва туркман тилларида олиб бориладиган мактабларнинг V–IX синфлари адабиёт дарслари мисолида). Пед. фан. док. (DSc) … дисс. – Тошкент, 2020. – 252 б.; Қодиров В. Умумтаълим мактабларида мумтоз адабиёт намуналарини ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. (DSc) ... дисс. – Наманган, 2019. – 271 б.; Юсупов Қ.А. Академик лицейларда қорақалпоқ адабиётини ўқитиш методикаси. Пед. фан. док.

Shukur Xolmirzayev ijodi adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan keng o‘rganilgan, jumladan, ilmiy maqolalar, dissertatsiya ishlari tayyorlangani[4] holda, ijodkorning asarlarini oliy ta’limda raqamli texnologiyalar sharoitida innovatsion yondashuv asosida o‘rgatish metodikasi tadqiqiga bag‘ishlangan monografik ishlar amalga oshirilmagan.

Adabiyot o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlarining tadqiqot ishlarida ham o‘z aksini topgan, xususan, G.I.Belenskiy, F.I.Volkov, V.A.Domanskiy, Y.N.Kolokolsev, A.S.Kurilov, Yu.M.Lotman, T.F.Sigayeva, Z.S.Smelkovalarning ilmiy qarashlarida adabiyot o‘qitishda uning badiiylik xususiyatlariga e‘tibor qaratilsa[5], yana boshqa olimlar, jumladan, V.Kan-Kalik, V.I.Xazan, O.Y.Bogdanova, V.G.Maransman, N.D.Moldavskaya, S.Kagan, A.B.Yesin, D.A.Mazilina, I.V.Rijkova, B.M.Eyxenbaumlar adabiy ta’lim jarayonining psixologik xususiyatlari, adabiy tahlil kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari yechimiga qaratilgan tadqiqotlar olib borganlar[6].

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish sharoitida oliy ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini innovatsion rivojlantirish mexanizmlarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish muammolari” mavzusidagi (2022-2025) ilmiy yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

(DSc) ... дисс. автореф. – Нукус, 2021. – 66 б.; Юлдашева Н.А. Адабий таълимда ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг илмийметодик асослари (умумий ва ўрта махсус таълим тизими мисолида). Пед. фан. док. (DSc) ... дисс. автореф. – Чирчиқ, 2022. – 65 б.

[4] Дониёрова Ш. Ижодкор ва услуб. – Тошкент: Турон замин зиё, 2014. – 88 б. Тиловова М. Бадиий ижод феменологияси (Шукур Холмирзаев ҳикоялари мисолида): Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) дисс. автореф. – Қарши, 2023. – 54 б. Mamayusupova S. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida folklorizmning o‘rni. Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – Jizzax, 2024. – 52 b.Yangibayeva N. Shukur Xolmirzayev asarlarining ijodiy biografiyasini o‘rganish muammolari (Shaxsiy arxividagi qo‘lyozma va nashr variantlar asosida): Fil. fan. b. fals. dok. (PhD) ...diss. avtoref. – Urganch, 2025. – 50 b. Safarov O. Shukur Xolmirzayevning adabiy-tanqidiy qarashlari: Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) diss. avtoref. –Toshkent, 2025. – 52 b..

[5] Беленский Г.И. Приобщение к искусству слова. – М.: Просвещение, 1990. – 192 с.; Волков Ф.И. Литература как вид художественного творчества. – Москва: Просвещение, 1985. – 128 с.; Доманский В.А. Литература и культура. Культурологический подход к изучению словесности в школе. – М., 2002. – С. 82– 91.; Колоколсев Е.Н. Искусство на уроках литературы. – Киев, 1991.; Курилов А.С. Зачем и какие уроки литературы нужны школе? // Русская словесность. 2004. – № 5. – С. 6–10.; Лотман Ю.М. Об искусстве. – СПб., Искусство-СПб, 1998. – 794 с.; Сигаева Т.Ф. Взаимодействие эмоционально-образного и логического начал в читательской деятельности пятиклассника. Дисс. … канд. пед. наук. – 1984. – 146 с.; Смелкова З.С. Литература как вид искусства. Книга для учителя и учащихся. – М.: 1997. – 280 с.

[6] Кан-Калик В.А., Хазан В.И. Психоло-педагогические основы преподавания в школе. – М.: Просвещение, 1988. – 256 с.; Богданова О.Ю., Леонов С.А., Чертов В.Ф. Теория и методика обучения литературе. – М.: Академия, 2004. – 400 с.; Марансман Е.К. Методическая система развития образного и концептуального мышления школьников в процессе изучения литературных произведений. Дисс. … док. пед. наук. – М., 2005. – 457 с.; Молдавская Н.Д. Литературное развитие школьников в процессе обучения. – М.: Педагогика, 1976.; Каган М.С. Чтениэ как феномен культуры // избранные труды в 7 т. Т. 3. Труды по проблемам теории культуры. – СПб, 2008. – 717 с.; Есин А.Б. Принципы и приёмы анализа литературного произведения. – М.: Флинта, Наука, 2000. – 163 с.; Мазилина Д.А. Понятие ―авторская позиция как инструмент анализа литературного произведения в профессиональных образовательных организациях. Дисс. … канд. пед. наук. – М., 2018. – 256 с.; Рыжкова И.В. Литературное развитие школьников в процессе диалога читателя и писателя. Автореф. дисс. … канд. пед. наук. – СПб, 1998. – 21 с.; Эйхенбаум Б.М. О принципах изучения литературы в средней школе // История литературного образования в российской школе: хрестоматия / авт.-сост. В.Ф.Чертов. – М.: 1999. – С. 290.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta’lim jarayonda raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga innovatsion yondashuv asosida Shukur Xolmirzayev asarlarini o‘rgatish metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga innovatsion yondashuv asosida Shukur Xolmirzayev asarlarini o‘rgatishning hozirgi holatini o‘rganish, uning pedagogik-konseptual asoslarini aniqlashtirish, innovatsion ta’lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va tatbiq etish bosqichlarini yoritish;

oliy ta’lim jarayonida innovatsion yondashuv asosida Shukur Xolmirzayev asarlarini o‘rgatishning mazmuni, metodi, vositalarini aniqlashtirish, ijodkor asarlarini talabalarga zamonaviy yondashuvlar asosida o‘rgatishning pedagogik shart-sharoitlarini o‘rganish;

ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga innovatsion yondashuv asosida Shukur Xolmirzayev asarlarini o‘rgatish modelini ishlab chiqish;

raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga innovatsion yondashuv asosida Shukur Xolmirzayev asarlarini o‘rgatish bo‘yicha pedagogik tajriba-sinov ishlarini olib borish, uning natijalari, samaradorlik darajasini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi talabalariga raqamli texnologiyalar sharoitida innovatsion yondashuv asosida Shukur Xolmirzayev asarlarini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish jarayoni tanlangan bo‘lib, tajriba-sinovda Termiz davlat pedagogika instituti, Guliston davlat universiteti, Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filalida jami 453 nafar talaba ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi talabalariga raqamli texnologiyalar sharoitida innovatsion yondashuv asosida Shukur Xolmirzayev asarlarini o‘rgatish metodikasining mazmuni, shakli va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, zidlash, tasniflash, suhbat, statistik tahlil, intervyu, anketa-so‘rovnomalari, pedagogik tajriba-sinov kabi bir qator usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga Shukur Xolmirzayev asarlarini innovatsion yondashuv asosida o‘rgatish tizimini takomillashtirish uchun “Siz kutgan adib”, “Kutilmagan holatlar”, “Asardagi savollar”, “Sayyoradagi eng yaxshi odam”, “Do‘stlikni qadrlovchi bolalar” kabi o‘yin texnologiyalaridan iborat raqamli ta’lim platformasi yaratilgan;

adib asarlarining qahramonlari psixologiyasini ochish, ularda milliylik va realizmning aks etishi, muallifning individual uslubini aniqlash jarayonida LMS, multimedia, elektron darsliklar, mobil ilovalar, sun’iy intellekt vositalari kabi raqamli texnologiyalardan talabalarning adabiy kompetensiyasini shakllantirish, tanqidiy fikrlashga o‘rgatish, raqamli savodxonligini rivojlantirish, mustaqil tahlil ko‘nikmasini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi isbotlangan;

raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga innovatsion yondashuv asosida Shukur Xolmirzayev asarlarini o‘rgatish modeli ta’lim jarayonining asosiy tarkibiy

qismlari maqsad, mazmun, natija va baholash komponentlarini o‘zaro bog‘liq holda tizimlashtirish, shuningdek, innovatsion metodlarni ta’lim jarayonida samarali qo‘llashning didaktik va metodik asoslangan mexanizmlarni ishlab chiqish bilan takomillashtirilgan;

raqamli texnologiyalar sharoitida innovatsion yondashuv asosida talabalarda Shukur Xolmirzayev asarlarini o‘qitish mahoratini, ya’ni badiiy asar ustida ishlash, asar mazmunini yetkazishda kommunikativ mahorat, bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari hamda pedagogik texnikani egallashini shakllantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga innovatsion yondashuv asosida Shukur Xolmirzayev asarlarini o‘rgatishning elektron didaktik vositalari ishlab chiqilgan, tegishli tartibda rasmiylashtirilgan (№ DGU 59525) va amaliyotga tatbiq etilgan;

oliy ta’limda adabiyot o‘qitish metodikasini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida “Bolalar adabiyoti” nomli o‘quv qo‘llanma yaratilgan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 6-fevraldagi № 6946-2269-8571-b2dc-3740-1039-2173-son ma’lumotnomasi bilan nashr guvohnomasi olinib, amaliyotda foydalanish uchun taqdim qilingan;

raqamli texnologiyalar sharoitida bo‘lajak o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchilarining Shukur Xolmirzayev asarlarini o‘rgatishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish bo‘yicha ilmiy-nazariy resurslar va bo‘lajak kadrlar ilmiy faoliyatini tashkil qilish (magistratura, doktorantura), virtual ilmiy-tadqiqot markazlari, loyihalar, vebinarlar, pedagogik va psixologik konsiliumlarni tashkil qilish, turli ta’limiy postlar yaratish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tajriba-tadqiqot 2020-2021, 2021-2022, 2022-2023-o‘quv yillari davomida “Raqamli texnologiyalar sharoitida bo‘lajak o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchilariga Shukur Xolmirzayev asarlarini o‘rgatishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish metodikasi” nomli mualliflik texnologiyasi asosida olib borilgan hamda o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalari bo‘yicha umumiy o‘rtacha samaradorlik nazorat guruhlariga nisbatan tajriba guruhlarida 1,128 barobarga, ya’ni 12,8% ga o‘sishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi qo‘llanilgan tadqiqot usullari va ilmiy-nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalarga aloqadorligi, keltirilgan tahlil hamda tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik statistika metodlari orqali asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga innovatsion yondashuv asosida Shukur Xolmirzayev asarlarini o‘rgatishga doir didaktik shart-sharoitlar, innovatsion texnologiyalar va intensiv yondashuvlar aniqlashtirilgani hamda ilmiy-metodik tavsiyalarning takomillashtirilganligi, dissertatsiyada aks etgan nazariy qarashlar mazkur yo‘nalishdagi yangi tadqiqotlar uchun manba

sifatida xizmat qilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya ishida ilgari surilgan g‘oyalar va amaliy tavsiyalaridan oliy ta’lim tizimidagi “Adabiyot o‘qitish metodikasi”, “Maktab darsliklari bilan ishlash” kabi fanlarning darslik, o‘quv, uslubiy qo‘llanmalari materiallarining yanada takomillashishiga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga innovatsion yondashuv asosida Shukur Xolmirzayev asarlarini o‘rgatish metodikasi tadqiqi davomida olingan ilmiy natijalar asosida:

raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga Shukur Xolmirzayev asarlarini innovatsion yondashuv asosida o‘rgatish tizimini takomillashtirish uchun “Siz kutgan adib”, “Kutilmagan holatlar”, “Asardagi savollar”, “Sayyoradagi eng yaxshi odam”, “Do‘stlikni qadrlovchi bolalar” kabi o‘yin texnologiyalaridan iborat yaratilgan raqamli ta’lim platformasidan olingan ma’lumotlar “Ona tili” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 19-dekabrdagi 8054-6769-4575-8821-d6f7-6867-4892-son ma’lumotnomasi). Natijada darslikning yangi ma’lumotlar, metodikalar, o‘yin texnologiyalari bilan boyitilishiga erishilgan.

adib asarlarining qahramonlari psixologiyasini ochish, ularda milliylik va realizmning aks etishi, muallifning individual uslubini aniqlash jarayonida LMS, multimedia, elektron darsliklar, mobil ilovalar, sun’iy intellekt vositalari kabi raqamli texnologiyalardan talabalarning adabiy kompetensiyasini shakllantirish, tanqidiy fikrlashga o‘rgatish, raqamli savodligini rivojlantirish, mustaqil tahlil ko‘nikmasini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi haqidagi xulosalardan “Bolalar adabiyoti” nomli o‘quv qo‘llanmani yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 6-fevraldagi 6946-2269-8571-b2dc-3740-1039-2173-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘quv qo‘llanma talabalarning badiiy asarlarni o‘zlashtirishining hissiy-emotsional faoliyati, badiiy asarlarni o‘rganish qobiliyati, kompetensiyalarining rivojlanishiga xizmat qiluvchi ma’lumotlar bilan boyitilgan;

raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga innovatsion yondashuv asosida Shukur Xolmirzayev asarlarini o‘rgatish modeli ta’lim jarayonining asosiy tarkibiy qismlari maqsad, mazmun, natija va baholash komponentlarini o‘zaro bog‘liq holda tizimlashtirish, shuningdek, innovatsion metodlarni ta’lim jarayonida samarali qo‘llashning didaktik va metodik asoslangan mexanizmlarni ishlab chiqish bilan takomillashtirilgan ma’lumotlardan “Ona tili” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 19-dekabrdagi 8054-6769-4575-8821-d6f7-6867-4892-son ma’lumotnomasi). Natijada darslikning yangi ilmiy manbalar, tahlildan o‘tgan badiiy matnlar bilan boyitilishiga erishilgan.

raqamli texnologiyalar sharoitida innovatsion yondashuv asosida talabalarda Shukur Xolmirzayev asarlarini o‘qitish mahoratini, ya’ni badiiy asar ustida ishlash, asar mazmunini yetkazishda kommunikativ mahorat, bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari hamda pedagogik texnikani egallashini shakllantirish bo‘yicha

ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan “Bolalar adabiyoti” nomli o‘quv qo‘llanmani yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 6-fevraldagi 6946-2269-8571-b2dc-3740-1039-2173-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘quv qo‘llanmaning talabalarda badiiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi o‘quv topshiriqlari, keyslar bilan boyitilishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilinib, muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola, shundan, 4 ta respublika va 5 ta xorijiy jurnallarda maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, uning umumiy hajmi 158 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqidagi ma’lumotlar yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Raqamli texnologiyalar vositasida talabalarga innovatsion yondashuv asosida Shukur Xolmirzayev asarlarini o‘rgatishning nazariy-metodologik asoslari”** nomli birinchi bobi uch fasldan iborat. “Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga innovatsion yondashuv asosida Shukur Xolmirzayev asarlarini o‘rgatishning pedagogik – konseptual asoslari” deb nomlangan birinchi faslida filologik yo‘nalishlarda amalga oshirilgan dissertatsiyalarning tahlili berilgan. Xususan, O‘zbek adabiyotshunosligida ijodkor shaxsi, avtobiografik xarakterdagi asarlarda muallif “men”i hamda adabiy qahramon aloqadorligi kabi masalalarga bag‘ishlangan bir qator ilmiy izlanishlar qilingan. M.Qo‘shjonov, U.Normatov, N.Karimov, S.Mirvaliyev, A.Rasulov, Q.Yo‘ldoshev, D.Quronov, H.Boltaboyev, B.Karimov, U.Jo‘raqulov kabi adabiyotshunoslarning ilmiy ishlarida avtobiografik xarakterdagi asarlarning janr xususiyatlari va o‘ziga xos belgilari to‘g‘risida ham fikrlar yuritilgan

Psixologiyada A.V.Burlachenko, Y.A.Melnichuk; Sotsiologiyada, A.S.Vetushinskiy; didaktikada O.V.Orlova, A.D.Oxotina, Y.D.Donkina, I.A.Lisitsa; uzluksiz adabiy ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘qitish jarayonida

yozuvchining ijodi va hayotini o‘rganish haqida bir qancha ilmiy-metodik asarlar yuzaga keldi. S.Dolimov, X.Ubaydullayev va Q.Ahmedovning “Adabiyot o‘qitish metodikasi”, A.Zunnunovning “Yuqori sinflarda G‘afur G‘ulom hayoti va ijodini o‘rganish”, Q.Jo‘rayevning “Maktabda Oybek hayoti va ijodini o‘rganish”, S.Ismatovning “Maktabda Abdulla Qahhorning hayoti va ijodini o‘rganish”, R.Usmonovning “Yuqori sinflarda yozuvchi biografiyasini o‘rganish”, J.Usmonovning “Maktabda Furqat hayoti va ijodini o‘rganish” singari 20 ga yaqin mutaxassislarning tadqiqotlari tahlilga tortilgan.

Bobning “Innovatsion ta’lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va tatbiq etish bosqichlari” deb nomlangan ikkinchi faslida pedagogik yo‘nalishdagi ilmiy ishlar: xususan, yosh avlodning mustaqil shaxs sifatida shakllanishi va yuksak insoniy fazilatlarga ega bo‘lishida, milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalanishida hikoya va qissalarning ta’lim-tarbiyaviy ta’siri masalalariga bag‘ishlangan dissertatsion tadqiqotlar ham o‘rganilgan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M.Maylz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem, F.N.Gonobolin, S.M.Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g‘oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tatbiq etish masalalari tahlil qilingan.

Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni tashkil etishda o‘ziga xos yondashuvlar kuzatiladi[7]. Ular: 1. Gnostik-dinamik yondashuv (unga ko‘ra pedagoglar pedagogik innovatsiyalar, ularning turlari, yaratilishi, amaliyotga tatbiq etilishi, xorij mamlakatlarida yaratilgan ilg‘or pedagogik (ta’limiy) innovatsiyalar va ularni o‘rganish, mahalliy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda amaliyotda ulardan foydalanishga doir bilim, ko‘nikma, malakalarni izchil o‘zlashtiradilar, o‘z faoliyatlarida pedagogik innovatsiyalarni faol qo‘llash borasidagi tajribalarni o‘zlashtiradilar). 2. Individual faoliyatli yondashuv (bunda pedagoglar o‘zlarining individual imkoniyatlari, qobiliyatlari, tajribalariga tayangan holda amaliy faoliyatda pedagogik innovatsiyalarni qo‘llashda muayyan izchillikka erishadilar). 3. Ko‘p subyektli (dialogik) yondashuv (mazkur yondashuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni hamkasblarning o‘zaro, xususan, ko‘p yillik ish tajribasi, kasbiy mahorat va tajribaga ega pedagoglarning faoliyatlari bilan tanishish, ularning ta’lim innovatsiyalarini samarali, maqsadli va uzluksiz qo‘llashga doir tavsiya hamda ko‘rsatmalaridan foydalanishlarini ifodalaydi). 4.Insonparvarlik yondashuvi (ushbu yondashuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni qo‘llashda ta’lim oluvchilarning imkoniyatlari, xohish-istaklari, qiziqishlari, bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini inobatga olish maqsadga muvofiqligini yoritishga xizmat qiladi). 5. Individual-ijodiy yondashuv (unga ko‘ra har bir pedagog faoliyatini o‘rganilayotgan mavzu, o‘quv materialining mohiyati, shuningdek, o‘z imkoniyatlari, salohiyati, mahorati, ish tajribasidan kelib chiqqan holda ta’lim va tarbiya jarayonlarini ijodiy ishlanmalar asosida tashkil etadi.

[7] Po‘latova M. Pedagoglarning innovatsion kompetensiyasini shakllantirish strategiyasining samaradorligi mezonlari // Ta’lim, fan va innovatsiya. – 2022. – №6. – B. 127–131.

Shu ta’rifga asoslangan holda biz Shukur Xolmirzayev asarlarini an’anaviy tarzda o‘qish bilan bir qatorda asarlarning mazmun mohiyatini yanada yaqqolroq anglatish maqsadida innovatsion yondashuvni amalga oshirishni maqsad qilib qo‘ydik. Buni amalga oshirish uchun biz olimlar tomonidan berilgan ba’zi bir ta’riflarni ham o‘rgandik. Masalan, innovatsiya – bu shunchaki ijod emas... Innovatsiyalarning tarqalishi faoliyat tarzi, fikrlash uslubidagi o‘zgarishlar bilan birga keladigan muhim xususiyatga ega bo‘lgan o‘zgarish sifatida o‘rganilgan[8].

Bobning “Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga innovatsion yondashuv asosida Shukur Xolmirzayev asarlarini o‘rgatishning hozirgi holati” deb nomlangan uchinchi faslida Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga innovatsion yondashuv Shukur Xolmirzayev asarlarini o‘rgatishda o‘qitish, o‘rgatish, matnlarni tahlil qilish metodlarining bugungi holati haqida batafsil yoritilgan. Biz ixcham tarzda adabiyot o‘qitish metodikasi fani zimmasiga yuklatilgan vazifalarni shunday shakllantirishimiz mumkin:

1. Adabiyot predmetining ta’lim bosqichlarida nima uchun o‘rganish zarurligini asoslash, ya’ni adabiyot o‘qitishning maqsad va vazifalarini muayyanlashtirish.

2. Adabiy ta’lim mazmunini aniqlash.

3. Metodika fani adabiy ta’limning o‘ziga xos yo‘l va usullarini o‘rganish bilan ham shug‘ullanadi. Unda alohida darslarni tashkil etish, unga qo‘yiladigan talablar ham ishlab chiqiladi.

4. Ta’limning turli bosqichlarida o‘quvchilarning o‘zlashtirishiga qo‘yiladigan talablar ham metodika faniga aloqador. Bunda baho me’yorlari va mezonlari, nazorat qilishning shakl va usullari qamrab olinadi.

5. Talabalarga adabiyot o‘qitish metodikasi bo‘yicha ularning amaliy faoliyatlarida asqotadigan nazariy hamda amaliy ma’lumotlarning eng muhimlarini yetkazish.

6. Talabalarni shu fanga aloqador bo‘lgan ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirish, ijodiy faoliyat va ilg‘or tajriba maktablarini o‘rganishga tayyorlashdan ham iboratdir”[9].

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda biz o‘zbek adabiyoti fanini o‘qitish metodikasi bo‘yicha quyidagicha fikrni bildiramiz.

Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga innovatsion yondashuv asosida badiiy asarlarni o‘rgatish metodikasining quyidagi tashkiliy tomonlari mavjud: ta’limiy kontent – o‘quv jarayoniga tatbiq etilayotgan innovatsion yondashuvlarning ta’lim sifatini oshirishga qaratilganligi; ta’lim subyektlarining o‘z faoliyati va teskari aloqa faoliyatini baholash, prognoz qilish, strategik rejani tuzish; interaktiv hamkorlikdagi faoliyatni tashkil qilish (mustaqil topshiriqlarni taqdim qilish, ularning nazoratini olib borish va zarur holatda korreksion ishlarni amalga oshirish).

Tadqiqot ishining ikkinchi bobi **“Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga innovatsion yondashuv asosida Shukur Xolmirzayev asarlarini**

[8] M.V. Klarin, Riga, “Эксперимент” nashriyoti, 1995-yil, 176 bet.

[9] Тўқлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: «Янги аср авлоди», 2010. – 16 б.

o‘rgatishning pedagogik shart-sharoitlari” deb nomlanadi. Uning dastlabki faslida “Oliy ta’lim jarayonida innovatsion yondashuv asosida Shukur Xolmirzayev asarlarini o‘rgatish mazmuni, metod, vositalari” masalasi tadqiq etilgan. Unda mazkur tuzilma uch bosqichga ajratildi. Dastlabki bosqichda o‘quv jarayoni ya’ni bilim berish sohasiga daxldor o‘quv fani, o‘quv elementi, o‘quv rejasi, DTS, o‘quv dasturi, o‘qish va o‘qish jarayonining asosiy mezonlari, o‘quv mavzuiy reja, adabiy-badiiy matn va matn materiallarining qo‘llanish usullari, ta’limning tamoyili, mazmuni, maqsadi, ta’lim berish kabi qator pedagogik faoliyat jarayonlarining tavsifi berilgan.

O‘zbek adabiyoti fanini o‘qitish metodikasi – bu badiiy adabiyot vositasida yosh avlodni ma’nan yuksak yuksaltirishga yo‘naltirilgan, tarbiya qonuniyatlariga amal qiladigan pedagogika fanidir.

Ma’lumki, o‘zbek filologiyasi yo‘nalishlarida Shukur Xolmirzayev asarlarini o‘rgatishda innovatsion ta’limning turli shakllari va usullaridan foydalaniladi: ta’lim texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, dasturlashtirilgan texnologiyalar, strim texnologiyalari va boshqalar.

Badiiy adabiyotlarni o‘qitishda biz bir qator personajlarning harakatlarini tizimlashtirish va ko‘rgazmali namoyish etishda zamonaviy axborot va telekommunikatsion vositalarning imkoniyatlarini o‘rganib chiqdik. Shunga asosan, o‘rganilayotgan asarning matnini ma’ruza-vizualizatsiya, jadvallar, harakatlanuvchi sxemalar bilan boyitilib borildi.

Raqamli texnologiyalar muhitida talabalarga innovatsion yondashuv badiiy asarlarni o‘rgatishda ularda ong, tafakkur va mantiqning takomillashuvi, rivojlanishini ta’minlaydi. Ular o‘zlarining tarkibiy jihatlari bilan boshqa metodlardan ancha farq qiladilar.

Masalan, Shukur Xolmirzayevning “Boychechak ochildi” hikoyasidagi quyidagi so‘zlar ma’nosiga to‘xtalish kerak “Domla ishga berilib ketdi, barmoqlari sovqotdi, tirnoqlari qizarib zirqiray boshladi - u sezmaganday edi, oxiri gulni tortib, uzib oldi. Puflab, iskadi va o‘ta nozik, unutilayozgan bir hidni tuydi.

“Muncha qo‘pollashib ketmagan bo‘lsam!” deb o‘yladi u battar ta’sirlanib va yana hidladi. Endi domla yosh go‘dakning pokiza, o‘tkir sezgisi bilan hidni yaxshi payqadi, yana... yoshligiga qaytdi”[10] to‘g‘risida ma’lumot berilmasa, talabalar o‘sha asarlarning mazmunini tushunib olishlari qiyin bo‘ladi.

Bobning ikkinchi fasli “Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga innovatsion yondashuv asosida Shukur Xolmirzayev asarlarini o‘rgatishning pedagogik shart-sharoitlari va modeli” masalalariga bag‘ishlangan. Tadqiqotda Shukur Xolmirzayev asarlarini talabalarga zamonaviy yondashuvlar asosida o‘rgatishning pedagogik xilma-xil usullari tavsiya etilgan va tegishli kuzatishlar asosida dalillangan. Xususan, Shukur Xolmirzayev asarlarini talabalarga zamonaviy yondashuvlar asosida o‘rgatishning dastlabki bosqichida o‘qituvchi nazariy ahamiyatga ega quyidagi didaktik omillarga e’tibor bersa, maqsadga muvofiq bo‘ladi:

[10] Xolmirzayev Sh. Saylanma. 5 jildli. – Toshkent: Sharq, 2007. – 105 b.

a) Bo‘lajak o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchilarida adabiy tahlil malakasini shakllantirish ertangi kunda o‘z o‘quvchilariga badiiy matn ustida ishlashni o‘rgatishda qo‘l keladi. Masalan, ilk tahliliy ko‘nikmalar boshlang‘ich sinfning o‘qish va ona tili darslarida matn mazmuni yuzasidan savol-javob asosida, shuningdek, to‘liq, qisqartirib, ijodiy va shaxsini o‘zgartirib hikoyalash vositasida hosil qilinadi. Natijada o‘quvchilar matn zaminidagi yetakchi ma’noni aniqlash, asar nafosatini his etish malakasini egallaydilar. O‘rta va yuqori sinflarda esa matn ustida ishlashda insho, referat, bayon, taqriz, ma’ruza matnini tayyorlash kabi ish turlari darsda qayd etishi lozim;

b) Badiiy asarlar janr xususiyatlari va dastur talablariga ko‘ra sinfda o‘qituvchi nazorati ostida, uyda mustaqil tarzda o‘qiladi. Sinfda ovoz chiqarib, ovoz chiqarmay ichida, jo‘r bo‘lib, sharhli, ifodali, adabiy-badiiy o‘qish usullarida mutolaa qilinishining o‘ziga xosliklarini keltirishi lozim;

v) Sharhli o‘qish tarixiy-memuar, ayrim hollarda zamonaviy mavzudagi asarlar mazmunini o‘zlashtirishni taqozo etadi. Sharhli o‘qish lug‘at ustida ishlashni anglatmaydi, balki asardagi obrazli ifodalar, maqol va matallar mazmunini sharhlash, tarixiy-afsonaviy, xayoliy-fantastik timsollar haqida ma’lumotlar berish, izohlash kabi murakkab masalalarni qamrab olishiga e’tibor bermog‘i lozim.

Tadqiqotning ushbu faslida talabalarning matn ustida ishlashiga, undagi muhim g‘oyani topishga, shular asosida fikrini o‘ziga xos sodda va uslubiga mos qisqacha tarzda ifodalab berishga mo‘ljallangan individual tarzdagi uy vazifasi sifatidagi topshiriqlar tizimi taqdim etilgan va ular ustida ishlash metodikasi yaratilgan.

“Blum taksonomiyasi” nazariyasi metodiga tayanilgan usullar sharhlangan. Ushbu nazariyaning kognitiv, affektiv va psixomotor kabi yo‘nalishlarining asosiy g‘oyalariga tayanilgan holda darslikda berilmagan bir qator savollar o‘rtaga tashlangan va muhokama qilingan. Xususan:

Talabalarga Shukur Xolmirzayevning “Tuproq ko‘chalar” qissasini o‘rgatishda ham asar qahramonlari maktab o‘quvchilari, endi dunyo taniyotgan o‘smirlar ekanligiga alohida urg‘u berilishi maqsadga muvofiqdir. Qissa qahramonlari bolalikning beg‘ubor ko‘chalarida kezib yurgan o‘smirlarning ichki dunyosi, o‘ziga xos bir yo‘sinda tasvirlangan. Asar qahramonlarining bolalarga xos soddaligi o‘z ifodasini topgan. Qissa qahramonlari Gung, Trazan, Raximcha kabi ko‘cha bolalari qanday tasvirlangan*?*

a) Gung, Trazan, Raximcha kabi ko‘cha bolalari nima uchun bunday holatga tushib qolgan?

b) Asardagi bir epizodda cho‘milishga kelgan Eshmamatning Tarzanlar tomonidan tazyiqqa uchrashi tasvirlanadi. Raximchaning og‘a-inilari begunoh, Eshmamatni armondan chiqquncha kaltaklaydilar. Eshmamat ham ularning zarbalariga bardosh beradi. Shu paytda qissa qahramoni Eshmamatning holiga achinsa-da, boshqalarning ra’yiga qarshi bora olmadi. Nima uchun?[11] Auditoriyadagi savol-topshiriqlar har bir talabaning affektiv (his qilish) va ichki his-hayojonlarini yuzaga chiqarishga, ularni muayyan ma’noda to‘lqinlantirib, faolligini

[11] Xolmirzayev Sh. Saylanma. 5 jildli. – Toshkent: Sharq, 2007. – 105 b.

yanada oshirishga sabab bo‘lgan omillar metodik jihatdan dalillangan.

Tadqiqotda “Blum taksonomiyasi” nazariyasining psixomotor (yaratish) yo‘nalishi bo‘yicha talabalarning amaliy ko‘nikmalarini o‘zgartirish va rivojlantirish maqsadida Shukur Xolmirzayevning asarlaridan olgan taassurotlari asosida talabalar o‘zlarining pedagogik mahoratlarini, kasbiy bilimlarini oshirib borishlari uchun audio kitoblarni tinglash, asarlar asosida yaratilgan spektakl va badiiy filmlarni ko‘rishlari va tahlil qilishlari asar qahramonlarining obrazlarini ijodiy innovatsion tarzda ifodalashi kabi individual topshiriqlar berilgan, bularni bajarish uchun talabalardan asarlar matnini mustaqil o‘qishni talab etish zaruriyati bilan bog‘liq xatti-harakatlarning metodik asoslari dalillab berilgan.

Tadqiqotda Shukur Xolmirzayevning asarlarini o‘rganishda uning ta’sirchanligini oshirish maqsadida zamonaviy ko‘rgazmali vositalardan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Asarning badiiy ta’sir kuchini oshirib borish maqsadida AKT imkoniyatlaridan keng foydalanilgan va geymlarning metodik asoslari muayyan kuzatishlar asosida dalillab berilgan.

Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga innovatsion yondashuv asosida Shukur Xolmirzayev asarlarini o‘rgatish metodikasi mazmunini boyitish uchun **“Omadli kitobxon”** geym ishlab chiqqan[12]. Buning uchun raqamli texnologiyalar vositasida 1 dan 30 raqamigacha bo‘lgan loto barellarni, “bochka”larini tayyorlangan.

O‘yinning borishi: guruhlar tanishuvi; hakamlarni tanishtirish; guruhlarni qur’a tashlash yo‘li bilan o‘yinga jalb qilish.

1-Geym. Navbatdagi, navbatdagi...

Ushbu geymda har bir guruh a’zolariga 10 tadan savol beriladi. Agar guruh a’zolari savollarga javob berishga qiynalishsa, ularga: “Navbatdagi..” degan jumla bilan murojaat etiladi.

1. Badiyat nima?
2. Qadriyatlar nimaga xizmat qiladi?
3. Shukur Xolmirzayevning tug‘ilgan yili va sanasi.
4. Shukur Xolmirzayevning hikoyalarini sanab bering.
5. Shukur Xolmirzayevning “Olis yulduzlar ostida” hikoyasining qisqacha mazmunini aytib bering?
6. Shukur Xolmirzayevning “Bulut to‘sgan oy” hikoyasining qisqacha mazmunini aytib bering.
7. Shukur Xolmirzayevning qissalarini sanab bering.
8. Shukur Xolmirzayevning “Ozodlik” hikoyasining qisqacha mazmunini aytib bering.
9. Shukur Xolmirzayevning “Uh” hikoyasining qisqacha mazmunini aytib bering.
10. Shukur Xolmirzayevning “Quyosh-ku falakda kezib yuribdi “ hikoyasining qisqacha mazmunini aytib bering.

[12] Husanova Sh. Raqamli texnologiyalar sharoitida Shukur Xolmirzayev asarlarini o‘rgatish metodikasi // Maktabgacha va maktab ta’limi, Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal. 2026№7(3) 428-432-b

2-Geym. Barrel muammolari

Ushbu o‘yinda jamoalar navbatma-navbat bochkalardan raqamli savollarni tortib olishadi va har bir jamoa uchun 5 tadan savol. Boshlovchi ushbu savollarni taqdimot qiladi. Savollar uchun ballar soni qiyinchilikka qarab har xil bo‘lishi mumkin. Ushbu o‘yinda “omadli kitobxon” imkoniyati paydo bo‘ladi.

Savollar:

1. Shukur Xolmirzayevning “O‘zbekning soddasi” hikoyasida qanday innovatsion yondashuv amalga oshirilgan? Javob: o‘yinlar uchun (1 ball).
2. Shukur Xolmirzayevning “Jarga uchgan odam” hikoyasining bosh qahramoni kim? (2 ball).
3. Shukur Xolmirzayevning “Boychechak ochildi” hikoyasida qanaqangi an’analar yoritilgan? (1 ball)
4. Shukur Xolmirzayevning “Kimsasiz hovli” hikoyasida muallif nimani oldingi rejaga suradi? (1 ball)
5. Shukur Xolmirzayevning “Qadimda bo‘lgan ekan” hikoyasining bosh qahramoni kim? (1 ball)
6. Shukur Xolmirzayevning “Nasib etsa” hikoyasining bosh qahramoni kim? (1 ball)
7. Shukur Xolmirzayevning “Yangi zot” hikoyasida bosh qahramon nimaga harakat qiladi? (1 ball)
8. Shukur Xolmirzayevning “Chillak o‘yin” ning asosiy g‘oyasi nima? (2 ball)
9. Shukur Xolmirzayevning “Hayot abadiy” hikoyasi voqealari qayerda bo‘lib o‘tadi? (1 ball).
10. Shukur Xolmirzayevning “Farzand” hikoyasidagi qadriyatlarni sanab bering?

3-Geym. “To‘g‘rimi, yoki...?”

Eshitgandan so‘ng, javob sifatida “ha” so‘zini yoki “yo‘q” so‘zini ayting.

Savollar:

1. Shukur Xolmirzayev vodiydanmi?
2. Shukur Xolmirzayev dramaturgmi?
3. Shukur Xolmirzayevning “O‘zbekning soddasi” hikoyasining bosh qahramoni ismi Raxmonmi?
4. Shukur Xolmirzayevning “Sizni sevaman” deb nomlangan hikoyasi bormi?
5. Shukur Xolmirzayevning “Farzand” hikoyasining bosh qahramonining ismi Malikami?
6. Shukur Xolmirzayevning “Uh” hikoyasida bosh qahramonning ismini bilasizmi?
7. Shukur Xolmirzayevning romanlarini sanab bera olasizmi?
8. Shukur Xolmirzayev tomonidan nashr qilinmagan asarlarni kim nashrga tayyorlaganini bilasizmi?
9. Shukur Xolmirzayevning “Farzand” hikoyasidagi onaning ismi Dilbarmi?
10. Shukur Xolmirzayevning “Olma yemadim” hikoyasining bosh qahramonining ismi Tursinboymi?

4-Geym. Hikoyadan kinoga

Ushbu o‘yinda talabalar guruhlarga bo‘linib o‘zlari sevib o‘qigan hikoyalardan

birini tanlab qo‘l telefonlari yordamida qisqa metrajli kino olishgan. Hikoya qahramonlari va jarayonlar hikoyaning mazmunini to‘liq qamrab olishlari kerak. Bu mustaqil ish sifatida taqdim qilgan. Muddati belgilangan. Tayyor bo‘lgach kinolar ko‘rilgan va tahlil qilingan.


Ishda Shukur Xolmirzayevning asarlarini talabalarga o‘rgatishning o‘quv (didaktik) tahlil usullari muammosini hal etish maqsadida bir qator vazifalar belgilangan va ular to‘la-to‘kis amalga oshirilgan:

1. Talabalarning asar matnini o‘qib chiqishi, undagi voqea-hodisalar tafsilotlari, badiiy obrazlar faoliyati, maqsad va xatti-harakatlari, asosiy va yetakchi g‘oyalar, hikoya va qissalardagi tarbiyaviy ma’lumotlarni o‘zlashtirishga erishish va so‘ngra asar tahliliga bag‘ishlangan muhokamada o‘qilgan hikoya va qissalarning didaktik tahlilini amalga oshirish orqali ularning o‘quv-bilish kompetentligini rivojlantirish;
2. Shukur Xolmirzayevning asarlarini o‘qitish va tahlil qildirish jarayonlarida talabalarda badiiy ko‘nikmalarini takomillashtirish, bu boradagi tegishli bilimlarini boyitish;
3. Shukur Xolmirzayevning asarlarini o‘qitish jarayonlarida asarning badiiy jihatdan pishiqligi, kompozitsion qurilmasining puxtaligi, bolalar obrazlarining realligini matn dalillariga asoslangan holda o‘quv-bilish kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish;
4. Shukur Xolmirzayev asarlari jo‘mardlik, tantilik, jasurlik, singari odamiylik sifatlari va fazilatlari asardagi badiiy dalillarga asoslanib talabalarda o‘quv-bilish ko‘nikmalarini ribojlantirish.

Tadqiqotning maqsadiga muvofiq, raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga innovatsion yondashuv asosida Shukur Xolmirzayev asarlarini o‘rgatishning uslubiy tizimini ishlab chiqishning ilk bosqichi ilmiy asoslangan modelni yaratishdan iboratdir. Modellashtirish murakkab, ko‘p tarkibiy qismdan iborat tizimlarni o‘rganishda tizimli tahlilning asosiy texnologiyalaridan biri bo‘lib, ularning ishlashi ko‘p sonli ichki va tashqi omillar bilan belgilanadi. Modellashtirish ilmiy tadqiqotning umumiy ilmiy usuli sifatida pedagogikada keng qo‘llaniladi. Kuzatish va tajriba kabi bilish usullari bilan bir qatorda modellashtirish muhim ahamiyat kasb yetadi.

Mazkur model jarayoni doirasida raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga innovatsion yondashuv asosida Shukur Xolmirzayev asarlarini o‘rgatishda atrof-muhit bilan o‘zaro muloqotga kirisha olishi, insoniylik sifatlarining rivojlanishi, o‘zini o‘zi rivojlantirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi orqali tajriba-sinov O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabalarining axborot madaniyatini rivojlantirish namoyon etdi. Ushbu model quyidagi rasmda aks ettirilgan komponentlardan tashkil topgan (1-rasm).

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, Internet ijtimoiy voqelik, global makon, qarama-qarshi qiziqishlar (manfaatlar) to‘qnashadigan soha hisoblanadi. Internet – ijtimoiy hodisa, postindustrial jamiyatning butun ijtimoiy va madaniy tizimi bilan o‘zaro aloqa o‘rnatish instituti bo‘lib, kommunikativlik (muloqot qila olish imkoniyati) uning asosiy xususiyati (xarakteristikasi) hisoblanadi. Internet muhitidagi xatti-harakatlar axborotni qidirish, qayta ishlash va uzatish, bilimlar olish va ularni uzatish bilan cheklanib qolmaydi.



1-rasm. Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga innovatsion yondashuv asosida Shukur Xolmirzayev asarlarini o'rgatish metodikasi modeli

Axborot muhitining elementi sifatidagi kiber makonda insonning turli shakl, turdagi faoliyati amalga oshiriladi, va bu faoliyat asosida bilish, o'yin va kommunikativ (muloqot) komponentlari yotadi.

